

# KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование  
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal  
2024-yil, 2-son

## Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi,  
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lif  
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV

Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

## Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,  
A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV,  
J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,  
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,  
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida  
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,  
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi  
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori  
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dessertatsiyalar  
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga  
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani  
Universitet ko'chasi, 2-uy

Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,  
ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas'ul  
H.Sirojiddinov

Sahifalovchi:  
I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri mualif nuqtai nazariga to'g'ri  
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi  
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"  
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 25.02.2024-yil.

Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,  
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

# МУНДАРИЖА

|  |     |
|--|-----|
| Shukurullayev O.A. Maktabgacha katta yoshdagagi bolalarda iqtisodiy tarbiya orqali tejamkorlikni shakllantirishda o'yinning ahamiyati.....                       | 3   |
| Isakov J.A. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida pedagogik kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish .....  | 9   |
| Raxmatova D.A. Duduqlanishni logopedik shaxobcha sharoitida bartaraf etishga qaratilgan korreksion ish uslublari.....  | 12  |
| Sadikova G.Sh. Axborot kommunikatsion texnologiyalar fani mashg'ulotlarida 4k model ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati.....                             | 17  |
| Куранбоева М.Ш. Педагогические условия формирования предметно-практических компетенций будущих педагогов профессионального обучения.....                         | 21  |
| Amirsaidova Sh. Quyi sinf aqli zaif o'quvchilar xotirasini rivojlantirish usullari.....  | 26  |
| Mahmudova S.A. Innovatsion yondashuv asosida umumta'lif maktablarida musiqiy madaniyatni shakllantirish metodlarini takomillashirish.....                        | 31  |
| Kurbanova G.U. Bo'lajak o'qituvchilarda kollaborativ o'qitish muhitini yaratish kompetensiyalarini shakllantirish.....   | 34  |
| Люпова М.Ю. Логопунктларда ўқитувчи-логопеднинг ҳамкорликдағи ишларини ташкил этиш.....  | 38  |
| Сафарова С.О. Основные проблемы и условия реализации инклюзивного образования.....   | 43  |
| Yo'ldoshev O.A. Globallashuv davrida ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etish (boshlang'ich sinflar misolida).....  | 48  |
| Salomova G., Shodiboyeva M. Maktabgacha ta'lif tashkilotida bolalar nutqini rivojlantirishda doir ishlar tizimi.....   | 51  |
| Xudoqulov J. Boshlan g'ich ta'limdi ona tili v a o'qish savodxonligi fanini o'qitish uzviyilagini ta'minlash omillari.....                                       | 56  |
| Qosimov Sh.U. Kasbiy ta'lif jarayonini tashkil qilisning uslubiy asoslar.....  | 60  |
| Boymirov Sh.T., Xudoynazarova V.M. Umumta'lif maktablardagi fizika fanini o'qitishda tajribalarning o'rni va ahamiyati.....                                      | 66  |
| Xamidova M. Matematika darslarda didaktik o'yinlardan foydalanan yo'llari.....   | 70  |
| Nurkeldiyeva D. Maxsus pedagog kadrlarni tayyorlashning xalqaro tajribasi.....   | 73  |
| Raximqulova M.B. Boshlang'ich ta'limdi ekologik qadriyatlarni o'rganishda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirish....                           | 79  |
| Saypillayeva H.B. Ixtisoslik modullarini o'qitishda individual ta'lif tamoyillarining qo'llanilishi.....   | 86  |
| Abdulazizova N.A. O'quvchilarida zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishning amaliy axamiyati.....   | 91  |
| Xodjabekova S.A. Duduqlanuvchi bolalarda kommunikativ qobiliyatini shakllantirish muammosini o'rganishning ilmiy-nazariy asosları.....                           | 94  |
| Arslanova M.M. Mustaqil ta'lif bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali ta'lif shakli sifatida .....      | 99  |
| Nurmanova D.J. Boshlang'ich ta'lif fanlarini o'qitishda 4k modelining ahamiyati.....   | 103 |
| Narziyeva N.N. Veterinariya oliy ta'lif muassasalarida talabalarida integrativ yondashuv asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish.....           | 107 |
| Alimov N.N., Boqiyev R.A. Professional ta'lif va oliy ta'lif tizimlarini integratsiyalash borasidagi innovatsion texnologiyalarning ahamiyati.                   | 112 |
| Alimov J.R. Treningning predmet mazmunini aniqlash kombinatsiyalangan mahorat va til va nutqni tanlash uni amalga oshirish uchun materiallar ishlab chiqish..... | 116 |
| Shermatova X.K. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mustaqil bilimlarini rivojlantirishining ilmiy pedagogik asosları.....  | 122 |
| Abdubannobova M.A. Inkluyuziv ta'lif tizimi jarayonining mazmun va mohiyati.....   | 126 |
| Quvvatova Z.R. Bokschilarda o'z-o'zini boshqarishning gender farqlari.....   | 129 |
| Исақулова Н.Ж. Божхона соҳасига оид терминлар типологияси..  | 132 |

## BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARINI O‘QITISHDA 4K MODELINING AHAMIYATI

NURMANOVA D.J.

Samarqan viloyati PYMO‘MM, Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim  
metodikalari kafedrasи o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda XX asrdagi zarur hisoblanadigan hayotiy ko‘nikmalarni 4K modelidan darslarida to‘g‘ri qo‘llash. Dars mashg‘ulotlarida o‘yin va interfaol metodlar hamda ulardan umumli foydalangan holda nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganishini o‘quvchilarning bilim olishlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish mumkinligi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** XXI asr ko‘nikmalar, 4K modeli, yumshoq ko‘nikmalar, umuminsoniy, Milliy o‘quv dasturi, role-model, vaqt-resursi, raqamli iqtisodiyot.

**Аннотация:** Эта статья посвящена правильному применению основных жизненных навыков в XXI веке при преподавании предметов начального образования по модели 4К. На уроках было разъяснено, что можно оказать положительное влияние на сознание учащихся, используя игры и интерактивные методы и используя их в целом для обучения не только науке, но и жизненным навыкам, необходимым в XXI веке.

**Ключевые слова:** навыки XXI века, модель 4К, мягкие навыки, универсальные, национальная учебная программа, ролевая модель, временной ресурс, цифровая экономика.

**Abstract:** This article focuses on the correct application of basic life skills in the XXIst century when teaching primary education subjects using the 4K model. The lessons explained that it is possible to have a positive impact on the minds of students by using games and interactive methods and using them in general to teach not only science but also life skills needed in the XXIst century.

**Key words:** XXI st century skills, 4K model, soft skills, universal, National Curriculum, role-model, time-resource, digital economy.

Ta’lim tizimi, xususan mifikta ta’limi hamisha e’tibor markazida bo‘lgan sohalardan biri bo‘lib kelmoqda. Yurtimizda ayni vaqtida maktablardagi darsliklar, ta’lim sifati, yangiliklarni joriy qilish, sohani takomillashtirishda ko‘plab yangiliklar amalga oshirilmoqda. Zero, dunyo hamjamiyatida fan va texnologiyalar taraqqiyotining jadallahushi, jumladan, raqamli iqtisodiyotga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu o‘z navbatida, bilimga asoslangan jamiyatda barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, ta’lim sohasiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Natijada, mifikta o‘quvchisida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi muhim

maskanga aylandi. Shu sababdan mifikta darsliklari, dars o‘tish uslublari, ta’lim sifatini ta’minalashdagi asosiy manba va omillardir. Umumiyo o‘rtta ta’limni yangi rivojlanish bosqichga ko‘tarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari barqaror taraqqiyotga olib bora oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida ilg‘or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikasi hamda ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish dolzab vazifalardir. Bu vazifalarni bajarishda uchun “XXI asr ko‘nikmalari”ni zamonaviy darslar an’anaviy darsliklardan farqli o‘laroq o‘quvchida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Aksariyat darsliklarda nima, qachon, qayerda, degan

savollarga javob topiladi va bu bolalarni nari borsa xotirasini rivojlantiradi. Ko'nikma shakllanmagani hisobiga bolalar hayotda duch keladigan masalalar, muammolarga javob topa olmasligi mumkin. Agar o'quvchida muammoga keng qamrovli yechim topish ko'nikmasi shakllantirilsa, muammoga duch kelganda unga qanday yechim topish ustida bosh qotiradi.

Aytaylik, ichimlik suvi butun dunyoda juda oz miqdorda qoldi. Suv atigi bir haftaga yetadi. Insonlar keyin nima qilishlari mumkin. Muammoni har tomondan o'rganishga erinmaydi. Buning uchun ularga bilimdan tashqari ko'nikma kerak bo'ladi. Mas'uliyat, ishtiyoq, tanqidiy fikrlash, muammoga o'ziga xos uslubda yechim topish kabi ko'nikmalar asosida shaxs xarakteri shakllanadi. Agar biz o'quvchilarda ana shunday ko'nikmalarni shakllantirishga erishsak, mehnat bozori sifatli ishchi kuchi bilan ta'minlanadi. Maktab ta'limini olgan holda o'quvchi kelajak uchun foydali mutaxassis bo'lib chiqadi.

Xususan, dars jarayonlarida o'quvchida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga urg'u berilmoqda. Masalan, o'quvchida mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, jamoaviylik ko'nikmalarini shakllantirish, yaratuvchanlik, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash, muammoga asaolangan, o'yinga asoslangan, tadqiqotchilikka asoslangan ta'lim olishlarini shakllantiradigan metodlar, usullar orqali darslar tashkil qilinmoqda. Maktabgacha va maktab ta'limi (Xalq ta'limi) vaziriligining 2020-yil 31-martdag'i "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturiniishlabchiqishto'g'risida" gibuyrug'i asosida xalqaro talablarga javob beruvchi umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqdi. Yuqori salohiyatlari milliy va xalqaro ekspertlar, Unicef, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan

taqdim etilgan xorijiy konsultantlar bilan hamkorlikda Milliy o'quv dasturi yaratildi. Maktab ta'limida Milliy o'quv dasturi 6 ta komponentdan - umumiy o'rta ta'limning malaka talablari, umumta'lim fanlarining konsepsiyalari, umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasi, umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari, umumta'lim fanlarini o'qitish metodologiyasi hamda baholash tizimidan iborat bo'ldi.

Maktab ta'lim tizimini takomillashtirishda darsliklarini tayyorlash ayniqsa "Tarbiya" fani darsliklarini yaratishda Yaponiyaning "Axloq ta'limi", Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Britaniyaning "Tafakkur", "Xulq ta'limi" fanlari va darsliklari yaqindan o'rganildi. Ilk marotaba darsliklarda "XXI-asr ko'nikmalar" deb nom olgan "Yumshoq ko'nikmalar" joriy qilindi. Yangi avlod fan darsliklaridagi amaliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar va mavzular o'quvchida muvaffaqiyat motivlarini uyg'otadi. Bu esa o'quvchining mustaqil faoliyati va mustaqil o'rganish, o'z ustida ishslash ko'nikmasini rag'batlantiradi. "Tarbiya" darsliklarida "role-model", ya'ni "namuna keltirish" zamонавија pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosida yuksak natijaga erishgan insonlar yutuqlari tahlil qilinadi. Shu orqali o'quvchida vatanparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasi, yetakchilik, tadbirkorlik, munosib kasb egallash ko'nikmalarini rivojlanadi. O'quvchiga yetakchilik, hamkorlik va jamoada ishslashni o'rgatadi.

XXI-asr ko'nikmalarini darslarda farzandlarimizda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi. Shuningdek, sog'lom turmush tarzi, vaqt-resurslardan to'g'ri foydalanish kabi bugunning dolzarb bo'lgan mavzulariga ham urg'u berilmoqda.

Ta’lim tizimidagi har bir yangilik, innovatsion g‘oyalar yosh avlodning kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Bugun shiddat bilan ilgarilab borayotgan zamonda XXI asr ko‘nikmalarini maktab o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi model - 4K tamoyili asosida ishlab chiqildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni zamonaviy darsliklar va dars mashg‘ulotlari asosida ta’lim oladilar. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri - ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganligidadir. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish, yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi.

O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. Bu o‘rinda 4K ning o‘rni beqiyosdir. 4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

Kollaboratsiyada o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlikda o‘quvchilar o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbатdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Kreativ fikrlashda o‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Kritik fikrlashda esa o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tanqidiy-tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va

mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni maktablarda joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Xususan, Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya, BAA kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratilgani o‘rganildi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rnlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda 4Kni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishilgan.

4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvli darslarda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi. Bu ko‘nikmalarni darslarida qo‘llay olish asosan o‘qituvchilarga bog‘liq. 4K innovatsion yondashuv natijasini o‘quvchilarning dunyoqarashi, fikrashi o‘sishida ko‘rish mumkin. XXI asr o‘quvchisi portretida XXI asr ko‘nikmalar bo‘lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo‘llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta’limning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Muxtasar qilib shuni aytishimi mumkinki, o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishda 4K ni rivojlantirishda izchillik va tizimlilik tamoyiliga qat’iy amal qilinsa, hayotiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda dars jarayonlarida topshiriqlarni mazmunan puxta tayyorlansa, nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. O‘quv dasturi asosida takomillashtirib boriladigan dars jarayonlarida bilimlar hajmi sinflar



kesimi bo'yicha rejalashtirilsa, 4K ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga zamin yaratadi. Boshlang'ich ta'lismi jarayonida o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalari uchun keladigan yanada yaxshiroq o'zlashtirishlariga mos lohaviy ishlar, topshiriqlar, muammoli vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lismi tizimidagi har bir yangilik, innovatsion g'oyalar, 4K modeli o'quvchilarning bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan o'qitishda ta'limga suhabat, bahs-munozara, adabiy tahlil, muammoli tahlil, qiyosiy tahlil singari metod va interfaol usullaridan bevosita dars jarayonida foydalanish ham ijobjiy natija beradi.



### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 125-sonli buyrug'i. 2023-yil 15-may.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilar, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.
3. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).
4. Begimkulov U. Pedagogik Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pf.d. disser. –T., 2007.
5. Ismailov A., Axmedov X., Karimberdiev Q. "PISA 2018 xalqaro dasturning o'qish savodxonligi qamrov doirasi". "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi matbaa bo'limi", Qo'llanma, Toshkent, 2021 yil. 90 b.
6. Ergasheva M. Xalqaro baholash daturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2023-yil. 19,6 b.t
7. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtiroychisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023
8. Yevropa Komissiyasi (2020): Ta'lim va o'qitish 2020 Dasturi, "O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish" Mavzuiy Ishchi Guruhi, Limassoldagi Tenghuquqli tahlim olish to'g'risidagi hisoboti, Kipr, 17-21 oktyabr, 2010.
9. Senge Peter et al The Dance of Change, Nicholas Brealey Publishing, 1999.
10. Senge, Peter The Fifth Discipline. The Art and Practice of the Learning Organisation, Doubleday, 1990.
11. White Ron, Hockley Andy et al From Teacher to Manager: Managing Language Teaching Organisations, CUP, 2008.